



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – BOBURIYLAR SULOLASI ASOSCHISI**

**Hamidabonu Hamidova Xamzayevna**  
Buxoro davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** *maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning boburiylar sulolasi asoschisi hamda temuriy shahzoda sifatidagi faoliyati haqida bahs yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *sarkarda, tarixchi, geograf, boburiylar sulolasi, avlod, masnaviy, muammo, g'azal, fard, tuyuq, qit'a.*

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil Andijonda dunyoga kelgan, buyuk shaxs, tarixchi, sarkarda va davlat arbobi. Boburning 12 yoshida otasi Andijon hokimi Umarshayx Mirzo kutilmaganda dunyodan o'tadi. Otasi vafotidan so'ng Bobur taxtga o'tiradi. Bolaligidan bunday katta vazifa, bo'yniga tushgan mas'uliyatlar, taxt uchun kurashlar qurshovida qoladi, ko'p azoblar va qiyinchiliklar ko'rib ulg'ayadi. Hindistonda 3 asrdan ortiq boburiylar sulolasi hukmronlik qilishdi. Bobur Hindistonda hukmronlik tepasiga kelganda, hind xalqlarining juda ko'p millatli, alohida bir-biriga o'xshamas e'tiqodlari, urf-odatlari, tili, yozuvi bo'ganligini bilgan holda, ularga bunday masalalarda erkinlik beradi. Bobur islom dinini targ'ib qilmaydi, tili, yozuvi, dinining urf-odatlarini majburan hind xalqiga singdirmaydi. Bobur shu kabi masalalarda ularga erkinlik beradi. Lekin shu bilan birga, ulardagi ba'zi urf-odatlarni qat'ian man etadi.

Havoli Kutiy degan joyda Bobur va askarlari qor bo'ronida qolib ketadilar. Shunda tashqarida sovuqda qolgan paytda Bobur ham ular oldida bo'ladi, zodagon shohlarda issiqqa kirib yashirinmaydi, dovyuraklik va adolat qiladi, askarlari qo'nim topgan g'orda birga askarlari bilan qoladi<sup>8</sup>.

Zahriiddin Muhammad Bobur nafaqat davlat arbobi, balki sohibdevon shoir hamdir. Bizgacha uning 119 g'azali, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 200 dan ortiq ruboysi, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari, «Mubayyin», «Boburnoma» asarlari yetib kelgan. Bundan tashqari Bobur Xoja Ubaydullohning «Risolayi validiya» asarini ham tarjima qilgan. Shoir «Xatti Boburiy» ni ham ixtiro qilgan va shu yozuvda o'g'li Humoyun bilan yozishmalar olib borgani tarixdan bizga ma'lum.

Boburning tarixchi, geograf ekanligini biz uning «Boburnoma» asari orqali bilamiz. Bu asarda u boshidan kechirgan voqealari, atrofidagi shaxslarning kimligi, nima bilan shug'ullanishi, ularning fe'li va hattoki yoqtirgan mashg'ulotlari, odatlarigacha ma'lumot beradi<sup>9</sup>. Bobur geograf sifatida o'zi kezgan o'lkalari, joy nomlarini alohida ta'kidlaydi, u yerning o'simliklari va hayvonlari haqida ma'lumotlar beradi.

Boburiylar sulolasi davomchilari hozirda ham yashab kelayotir, lekin ular shu kungacha o'zlarini «boburiylardanman» - deya aytishga jur'at topolmagan, Boburiy avlodlaridan Zayniddin Mavlonov oxirgi boburiylar sulolasining tojdori Bahodirshoh Zafarning chevarasi hisoblanadi. Zahriiddin Muhammad Boburdan keyin 15-avlod,

<sup>8</sup> Qodirov P. Yulduzli tunlar. -Toshkent, 2019. 356-b.

<sup>9</sup> Z.M.Bobur. Boburnoma.-T. O'zbekiston.2019.10-b.



Sohibqiron Amir Temur Akbardan keyin 20-avlod sanaladi. 1857- yil inglizlar Hindistonni bosib olishganda «Boburshohlar avlodlarining erkaklaridan qolmasligi kerak,» - degan maqsadda ish tutishgan, ya'ni sulola davomchilarini qirib tashlashga harakat qilishgan. O'shanda Zayniddin Mirzoning bobolari shahzoda Mirhazar, asl ismlari Mirzo Muhiddinni 6 yoshlarida buvilari Dehlidan Kashmirga qochirishga muvaffaq bo'ladilar. Kashmir o'sha davrda boburiylarning dam oladigan hududi hisoblangan. Kashmirda ulg'ayadilar, bilim oladilar lekin bundan inglizlar razvedkasi xabar topgach, u yerdan ham chiqib ketadilar. 1880-yilda Kashmir, Kobul, Mozori Sharif, Termizlardan o'tib Movarounnahrga keladilar. Mirzo Muhiddinni Buxoro amir Muzaffar qabul qilib, har bir shahzodaga qilinadigan muomala va sharoitlarni yaratib beradi. Shundan so'ng Bobur avlodlari O'zbekistonda qoladilar. Ammo 1990-yilgacha ular o'zlarini kimning avlodni ekanliklarini sir tutishga majbur bo'ladilar.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Zahiriddin Muhammad Boburnining hayot faoliyatini uning asarlarini o'rganish biz uchun sharaf va g'urur bag'ishlajak. Zahiriddin Muhammad Boburni boburiylar sulolasiga sifatida tarixdagi o'rni beqiyos, hozirda ham uning avlodlari boburiylar sulolasini davom ettirib, ular urf-odatlarini saqlagani, o'zligini yo'qotmay kelayotgani esa Boburning ruhini shod aylajak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Abadiy barhayot asarlar» turkumi – T.: Navro'z, 2019. – 576 b.
2. Boburnoma. –T.: O'zbekiston. 2019. – 440 b.
1. Sultonovich, B. K., Abdusalamovna, J. F., Mamatkulovna, V. A., & Vladimirovna, M. E. Analysis of the Nematode Fauna of Watermelon Households of Akdarya District of Samarkand Region.
2. Vladimirovna, M. E. PATHOPHYSIOLOGY OF PAIN AND TREATMENT APPROACHES WITH CHRONIC PANCREATITIS.
3. Vladimirovna, M. E. PATHOPHYSIOLOGY OF PAIN AND TREATMENT APPROACHES WITH CHRONIC PANCREATITIS.
4. Шамсиев, Ж., Сапожников, С., Стреляева, А., Ашурев, А., Садыков, Р., Балаян, Э., ... & Мухитдинов, Ш. (2014). Функциональное состояние сердца при эхинококкозе легких у взрослых больных, осложненным пециломикозом. Журнал проблемы биологии и медицины, (2 (78)), 64-68.
5. Джалилов, Д. А., Мухаммедова, Ф. Ф., & Мурадова, Э. В. (2019). ЯМБЛИОЗ У ДЕТЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИНИКИ И ЕГО МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ. In Молодежь и медицинская наука в XXI веке (pp. 167-168).
6. Абдурахимова, А. Ф., Сирожидинова, С., Мурадова, Э. В., & Худаярова, Г. Н. (2019). КОКЛЮШ И ПАРАКОКЛЮШ ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПЕРЕКРЕСТНОГО ИММУНИТЕТА. In Молодежь и медицинская наука в XXI веке (pp. 162-162).



7. Mamatkulovna, V. A., & Vladimirovna, M. E. (2024). THE USE OF MAGNE B-6 FOR THE COMPLEX TREATMENT OF CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 194-196.
8. Vakhidova, A. M., & Muradova, E. V. (2024). DIFFERENTIAL EXPRESS DIAGNOSIS OF ECHINOCOCCOSIS AND PECILOMYCOSIS OF THE LUNGS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(3), 534-538.
9. Стреляева, А., Сапожников, С., Шамсиев, Ж., Ашурев, А., Балаян, Э., Садыков, В., ... & Мухитдинов, Ш. (2014). Осложнение эхинококкоза печени у взрослых больных пециломикозными миокардитами. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (2 (78)), 79-86.
10. Сапожников, С., Шамсиев, Ж., Стреляева, А., Ашурев, А., Балаян, Э., Садыков, В., ... & Мухитдинов, Ш. (2014). Морфологические и рентгенологические исследования эхинококкоза и пециломикоза легких. *Журнал проблемы биологии и медицины*, (2 (78)), 46-51.
11. Худоярова, Г. Н., Мурадова, Э. В., & Вахидова, А. М. (2020). ПРИНЦИПЫ ЛЕЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ ПНЕВМОНИИ ПРИ ИНФЕКЦИИ ГРИБАМИ РОДА PEACILOMYCES У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА. *Журнал теоретической и клинической медицины*, (3), 145-147.
12. Muradova, E. V., Xudoyarova, G. N., & Vakhidova, A. M. (2018). Morphology of viable and dead echinococci, the effect of antibiotics and homeopathic drugs on the echinococcal fluid. *Maqola. Mintaqada zamonaliv fan, ta'lif va tarbiyaning dolzarb muammolari*.